

**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O`RTA MAXSUS TA`LIM VAZIRLIGI**

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI

NEMIS VA FRANSUZ TILLARI KAFEDRASI

H.T.RAHIMOV

**5120100 – FILOLOGIYA VA TILLARNI O`QITISH
(NEMIS TILI) yo`nalishi talabalari uchun
Roman- german filologiyasiga kirish fanidan**

M A` R U Z A L A R M A T N I



Namangan-2019

1- ma`ruza

Mavzu: German filologiyasiga kirish predmeti

Reja:

1. German tillari va ularning tarqalishi
2. Sezar va Tatsit Germanlar haqida
3. Qadimgi Germanlarning ijtimoiy hayoti va urf-odatlar
4. Xalqlarning buyuk ko`chishi
5. Johil qirolliklarning shakllanishi

Kalit so`z va iboralar:

German, hind-orupo, 400 million, G`arbiy german, Sharqiy german, Shimoliy german qabilalari, antik, Ingliz, nemis, niderland, afrikaans, idish, friz, qirollik, diniy e`tiqod, roman, Verden shartnomasi, qirol Lis, Lyudvig, nemis, Lotar

Adabiyotlar:

1. Рахимов Х.Р. Введение в германскую филологию. Тексты лекций. -Т.:ТДПУ 2000.-68с.
2. Арсеньева М.Г. и др. Введение в германскую филологию. - М: Высшая школа, 1980.-319 с.
3. Богородицкий В А. Введение в изучение современных романских и германских языков. - М: Изд-во литературы на иностранных языках, 1953.— 183 с.
4. Гухман М.М. Готский язык. - М: Изд-во литературы на иностранных языках. 1958 - 190 с.
5. Жирмунский В.М. Введение в сравнительно-историческое изучение германских языков. - М, - 1б: Просвещение, 1964.-214 с.

1. German tillari va ularning tarqalishi

German tillari hind-ovrupa tillari ichida so`zlashuvchilar soni bo`yicha birinchi o`rinda turadi. Turlicha hind-ovrupa tillarida jahonda 16 000 mln. kishi so`zlashsa, shundan 400 mln. kishi German tillarida so`zlashadi.

Hozirgi zamon German tillari asosan 3 Guruhga bo`linadi:

- 1) G`arbiy german tillari,
- 2) Sharqiy german tillari,
- 3) Shimoliy german tillari.

I. G'arbiy german tillari guruhiga Ingliz, nemis, niderland (Golland), Afrikaans (bur), idish (yahudiy), friz tillari kiradi.

Ingliz tilida Buyuk Britaniya, Amerika Qo'shma Shtatlari, Avstraliya va Yangi Zelandiya aholisi so'zlashadi. Ingliz tili ushbu mamlakatlarda milliy til hisoblanadi. Shuningdek, Ingliz tili Kanadada fransuz tili bilan bir katorda davlat tili hisoblanadi, mamlakatda Ingliz-kanadaliklar aholining 40% dan ko'p qismini tashkil etadi.

Ingliz tili Janubiy Afrika Respublikasida ham Afrikaans (bur) tili qatori davlat tili hisoblanadi. Umuman olganda, Ingliz tilida 300 millionga yaqin kishi so'zlashadi.

Nemis tilida Germaniya, Avstriya, Shimoliy va Markaziy Niderlandiya, Lyo'qsemburg, Franqiya hududidaGi Elzas va Lotaring aholisi so'zlashadi. Shuningdek, nemis tili ovrupaning ayrim tumanlariga va Amerika Qo'shma Shtatlariga ham tarqalgan. Umuman olganda, jahonda nemis tilida 100 millionga yaqin kishi so'zlashadi.

Niderland (Golland) tili Niderlandiya va Bel'giyaning shimoliy tumanlaridan Flandriya aholilari ona tili hisoblanadi. Ushbu tilda dunyoda 19 million odam so'zlashadi.

Afrikaans (bur) tili Niderland koloniyachilarining tili hisoblanib, u tilda 3.5 million aholi so'zlashadi.

Idish - hozirgi zamon yahudiy tili hisoblanib, u turli Ovrupa mamlakatlarida yashovchi yahudiy aholisi o'rtasida tarqalgan.

Friz tili mustaqil milliy til hisoblanmaydi. Bu tilda Germaniyaning shimoliy-G'arbiy tomonlari aholisi so'zlashadi.

II. Shimoliy german (skandinav) tillari guruhiga quyidagi tillar kiradi:

Island tili - Islandiya mamlakatining tili, 215 ming kishi so'zlashadi;

Norveg tili - Norvegiya aholisining tili, 4 mln.ga yaqin kishi so'zlashadi;

Farer tili - Farer orollari aholisi tili, 35 ming kishi so'zlashadi;

Shved tili - Shvetsiyaning 8 mln.dan ziyod va Finlandiyaning 400 ming aholisi so'zlashadi.

Daniyaliklar tili - Daniya aholisining ona tili hisoblanib, bu tilda 5 mln.dan ziyod aholi so`zlashadi.

III. Sharqiy german tillari Guruhiga Got tili kiradi.

2. Sezar va Tatsitlarning germanlar hahida

3.

Qadimgi germanlar o`zlarining rivojlanishi tarixida boshqa qabilalar va xalqlar o`z boshlaridan kechirgan barcha kechinmalarni o`tkazdi. Germanlar farq qiladigan muhim, boshqalar bilan aralashmagan urug`ni tashkil qilmasdan balki arxeologik qazilmalar natijalariga e`tibor beradigan bo`lsak, hamda antik olimlar ya`ni Sezar va Tatsitlar fikrlariga tayanadigan bo`lsak, ular boshqa qabilalar bilan aralashib ketganiga guvoh bo`lamiz. Ayniqsa, tarixiy faktlar asosida qarasak, ayrim german qabilalarining romanlashishi va kel`tlashishi ko`zga tashlanadi. Ayrim olimlarning fikriga qo`shilish qiyin, chunki ular German tillari hind ovrupa-tillarining to`liq belgilarni o`zida saqlab qolgan deyishadi. Ammo, German tillarining rivojlanish jarayonida boshqa qabilalarning ta`siri natijasida ko`pgina elementlar German tillarida paydo bo`ladi.

3. Qadimgi germanlarning ijtimoiy hayoti va urf-odatlari

German qabilalari boshida asosiy urug` boshlig`i turadi. Ya`ni qiyoslasak, Got tilida *kuni*,

Qadimgi Ingliz tilida *synn*,

Qadimgi yuqori nemis tilida *kunni*,

Qadimgi skandinav tilida *kun*,

Lotin tilida *genus*,

Yunon tilida *genos* - nasl, avlod.

Yuqori hokimiyat xalq yig`ilishiga tegishli bo`lib, unda faqat qabila erkaklari qurollangan holda qatnashgan. Harbiy jarayonda harbiy qo`mondon saylangan. Masalan, Qadimgi yuqori nemis tilida Herizogo, Qadimgi Ingliz tilida

heretoga, Qadimgi island tilida hertogi, nemis tilida Herzog - Gersog (G`arbiy ovrupada mulkdor va yuqori tabaqa dvoryanlar unvoni). O`sha davrda Germanlarda patriarxallik hukm surgan. Ammo, ayrim ma`lumotlarga qaraganda, o`sha davrda matriarxallik qoldiqlari ham mavjud bo`lgan. Shuning uchun ham ayrim Germanlarda opa-singillar tomonidan tog`a va jiyanlar o`rtasidagi qarindoshlik rishtalari hatto ota-o`g`il munosabatlaridan-da kuchliroq bo`lgan. Shunga qaramay, o`g`il, har holda, merosho`r bo`lgan. Dushman uchun opa-singil tomonidan jiyni yoki qabila boshlig`ining qizi yoki jiyanini garovga olish ko`proq maqsadga muvofiq bo`lgan.

Germanlarning ko`chishi yangi eraning birinchi asrlarida yuz berdi. Sezarning ta`kidlashicha, Germanlar ko`chmanchilik davrida asosan chorvadorlik, ovchilik va harbiy bosqinchilik bilan shug`ullanganlar. Sezarning yozishicha, Germanlar asosan sut, pishloq, go`sht va juda kam non iste`mol qilishgan. Pliniy esa ularning ovqati sifatida suli yormasidan bo`lgan bo`tqa haqida yozadi.

Germanlarning kiyimi asosan hayvonlar terisidan tayyorlangan, mo`yna bilan bezatilgan plash, ayollarning kiyimi esa qizilga bo`yalgan bo`z matodan bo`lgan.

Germanlarning ovullari xodadan yasalgan kulbadan iborat bo`lib, ular bir-biridan uzoq joylashgan va atrofi tomorqalar bilan o`ralgan. Ushbu qarorgohlarda butun boshli urug` joylashgan.

Germanlar to`qimachilik, sovun ishlab chiqarish, mato bo`yash, kulolchilik, metallarni qayta ishlash, kemasozlik va baliqchilik bilan shug`ullanishgan. Germanlar rimliklarga qoramol, teri, mo`yna, qahrabo sotib, ulardan metall buyumlar, qurol-aslaha, uy anjomlari, bezaklar, vino va mevalar sotib olishgan.

Qadimgi Germanlarning urf-odatlarini haqida so`z ketganda, ta`kidlash joizki, ular mehmondo`st; turmushdagi eng muhim voqealar - farzand tug`ilishi, nikoh va dafn marosimlaridir. Vafot etganlarni Germanlar o`tda yoqishgan.

Germanlar xudoga ishonishgan, ular o`zlarining boshlanishi va paydo bo`lishi xudodan deb tushinishadi. Mifda ta`kidlanishicha, yer xudo Tuiskoni yaratdi va uning o`g`li Mann germanlarning katta ajdodi hisoblanadi.

Germanlarning fikricha eng katta xudolar - eng yuqorida yashaydi, eng pastda esa ruhlar makoni - kulfat, do`zax. Insonlar dunyosi turli g`aytroddiy kuchlar bilan qurshalgan: janubda tinchlik, olov; shimolda ayoz va kulfat; sharqda ulkan bahodirlar, Garbda esa vanlar dunyosi deb tassavvur qilishgan.

4. Xalqlarning buyuk ko`chishi

Germanlar orasida mulk tengsizligi va urug`-qabilalar o`rtasidagi munosabatlarning keskinlashuvi German qabilalarining ijtimoiy-siyosiy hayotida katta o`zgarishlarga olib keldi. Ishlab chiqarish kuchlarining past rivojlanishi, yerga bo`lgan ehtiyojning kuchayishi, qulchilikka va rivojlangan qo`shni xalqlarning boyligini talon-taroj qilishga intilish German qabilalarining ko`chishiga sabab bo`ldi. Ular Ovrupaning katta hududlarini eglladilar. 4-7 asrlar davomida bu hodisa davom etdi va tarixda Xalqlarning buyuk ko`chishi davri nomini oldi.

Sharqiy German qabilalari - Gotlar Visla daryosining quyi oqimidan va Boltiq dengizi sohillaridan, Germanlar cho`llaridan Rim imperiyasi tomon ko`chishadi. O`sha paytda Rim imperiyasi uzluksiz urushlar, qullar va qaram mamlakatlarning qo`zg`olonlari natijasida zaiflashgan edi. Rim imperiyasining qulashi bilan quldorlik tuzumi ham barham topadi. German qabilalarining Ovrupaga buyuk ko`chishi 6-7- asrlarda tugaydi va Germanlarning johil qirolliklari tashkil topadi.

5. Johil qirolliklarning tashkil topishi

Germanlar qirolliklari 5- asrdan boshlab muayyan tarixiy vaziyatga bog`liq ravishda juda murakkab tarzda tashkil topa boshlaydi.

Sharqiy Germanlarning rim imperiyasi hududida rimliklar bilan to`qnashuvidan so`ng quyidagi davlatlar yuzaga keldi: Italiyada ostgotlar, Ispaniyada vestgotlar, o`rta Reynda burgundilar va shimoliy Afrikada vindallar.

6- asrning o`rtalarida Vizantiya imperiyasining qo`shinlari tomonidan vindallar va ostgotlar qirolliklari tugatiladi. 534 yil burgundilar qirolligi Merovinglar davlatiga qo`shiladi. Franklar, vestgotlar, burgundilar Galliya va Ispaniyaning romanlashgan aholisi bilan aralashib ketadi.

G`arbiy german qabilalari - angllar, sakslar va yutlar Britaniyaga ko`chadi va Britaniya hududining katta qismida o`zlarining qirolliklariga asos soladilar. Karl davlat tepasiga chiqqach, yer islohotlari o`tkazadi va franklar jamiyatini feodallashtiradi. Uning saroyida ko`pgina olimlar, shoirlar yig`ilishgan. Karl monastir maktblari va monax-ruhoniylar orqali madaniyat va savodxonlikni targ`ib qiladi. Ilk roman arxitekturasida uslubida ko`plab qasrlar va ibodatxonalar qurdiradi.

Karl vafotidan keyin Karolinglarning buyuk imperiyasi uch qismga bo`linib ketdi. Verden shartnomasiga asosan imperiyaning G`arbiy qismi ya`ni bo`lajak Fransiya Karl Lisonga; sharqiy qismi - bo`lajak Germaniya Lyudvig Nemisga, Karl va Lyudvig yerlari o`rtasidagi Italiya esa Loterga nasib qildi. Shunday qilib, uchta alohida davlat yuzga keldi.

2- ma`ruza

Mavzu: Qadimgi German qabilalari va ularning yozuvi

Reja:

1. Qadimgi german qabilalarining tasnifi
2. Qadimgi german qabilalari va ular tillarining tasnifi
3. Yozuv davrigacha german tillari
4. Runa yozuvi
5. Lotin yozuvi
6. Got yozuvi

Kalit so`z va iboralar:

Runa, lotin, got, yozuv, Vindallar, ingveeonlar, istveonlar, burgundilar, karinlar, gutonlar, tevtonlar, havklar, brukterlar, homavlar, sallar, Franklar, angllar, sakslar, yo`tlar, frizlar, bastarlar, markomanlar, kvadlar, langobardlar, alemonlar.

Adabiyotlar:

1. Рахимов Х.Р. Введение в германскую филологию. Тексты лекций. -Т.:ТДПУ 2000.-68с.
2. Иванова И.Т. Хрестоматия по истории английского языка. - Л: Просвещение, 1973.-310 с.
3. Мейе А. Основные особенности германской группы языков. - М: Изд-во. Литературы на иностранных языках, 1952.-280 с.
4. Расторгуева Т.А. История английского языка. - М: Просвещение, 1983.-321с.
- 5 Гухман ММ. Готский язык. - М: Изд-во литературы на иностранных языках. 1958 - 190 с.
- 6 Жирмунский В.М. Введение в сравнительно-историческое изучение германских языков. - М, - 1б: Просвещение, 1964.-214 с.

1 Qadimgi german qabilalarining tasnifi

Qadimgi german tillari va ularning tasnifi o`sha tillar sohiblari bo`lmish qabilalar masalasi bilan bog`liq. German qabilalarining birinchi tasnifini Pleniy Starshiy amalga oshirdi va unga ko`ra 6 guruhga bo`ladi:

1. Vindallar, bunga burgundilar, karinlar, varinlar, go`ttonlar qabilalari kiradi. Ular hududning sharqiy qismida yashaganlar.

2. Ingveonlar, bunga kilovrlar, tevtonlar, havklar hamda angllar, sakslar, yutlar, frizlar. Ular Germaniya hudududining shimoli-g`arbiy qismida istiqomat qilishadi.

3. Istveonlar, bunga brukterlar, xavklar, sallar kiradi; keyinchalik esa franklar qabilalari ittifoqi ham qo`shiladi.

4. Pevkinlar, bastarlar bo`lib, ular mamlakatning sharqiy qismida yashashgan.

5. Germionlar yoki ermionlar bo`lib, ularga markomenlar kiradi, Germaniyaning janubiy qismida yashashadi.

6. Gillevionlar - skandinav qabilalari.

2. Qadimgi german qabilalari tillarining tasnifi

Qadimgi German bitiklari aks etgan yodgorliklarni o`rganish asosida quyidagi til guruhlarini ajratish mumkin:

1) Sharqiy german tillari. 4-6- asrlarga taalluqli yodgorliklardagi Got tili timsolida. Otsgotlar qirolligi barham topishi bilan got tili yozuvi ham yo`q bo`lib ketgan.

2) Shimoliy (skandinav) german tillari guruhi, 10- asrgacha runa yozuvida yodgorliklar timsolida ajratilgan.

3) G`arbiy german tillar guruhi, 7- asrga taalluqli bo`lgan yodgorliklarda Qadimgi Ingliz, Qadimgi friz, Qadimgi sakson, Qadimgi quyi frank va Qadimgi yuqori nemis tillari timsolida.

German tillaridan shimoliy va G`arbiy guruhlari hozirgacha saqlanib qolgan. Ular miliy tillar darajasida yoki milliy tilning lahjasi sifatida rivojlandilar. Ushbu tillarni qabila tillari sifatida tasniflasak, Vindillar Guruhiga gotlar, burgundilar kiradi va ular sharqiy German tillari namoyandalari hisoblanadilar. Ingveonlar guruhiga tevtonlar, havklar, frizlar, angllar, sakslar, yutlar kabi qabilalar tillari kiradi. Itsveonlar guruhiga frank qabilalari kiradi; germeonlar guruhiga - alemannlar, bavarlar, langobardlar kiradi va ular g`arbiy german tillari sohiblari

hisoblanadilar. Gillevionlar - skandinav qabilalari shimoliy german tillarida so`zlashganlar.

3. Yozuv davrigacha bo`lgan german qabilalari

Qadimgi germanlar turli paytlarda turlicha elatlar bilan yaqinlashadi, masalan ya`ni finlar bilan, boltiq, va slavyan qabilalari bilan, janubda esa Qadimgi Greklar va rimliklar bilan yaqin munosabatda bo`ladi. Shu yaqinlashuvlar natijasi o`laroq, o`sha xalqlar tillarida German tillaridan kirib kelgan so`zlarni uchratish mumkin.

Masalan renga-uzuk,
Got. *hringes*,
Qadimgi yuqori nemis tilida *ring*,
kulta-tilla,
Got—gult,
Qadimgi yuqori nemis gold, rekas - boy,
Got, reiks,
Qadimgi yuqori nemis rich.

Ko`pgina germanlarning atoqli otlari nomlari va boshqa so`zlar lotin tilida bitilgan yodgorliklarda uchraydi, o`sha paytlarda german tillarining o`z yozuvlari paydo bo`layotgan davr edi. german atamalarining lotin tilidagi yozuvlarida asosan Germanlarda harbiy demoqراطيya tuzish jarayoni va feodal munosabatlar tug`ilishi davri, hamda germanlarning huquqiy munosabatlari o`z aksini topgan. Diqqatga sazovor joyi german qabilalaridan burgundilar va langobardlar o`z ona tillarida bironta ham yozma yodgorlik qoldirmagan.

4. Runa yozuvi

Germanlarda eng qadimgi yozuv runa yozuvi hisoblanadi. "Runa" harfining nomi "sir" so`zining negizidan bo`lib, Got tilida runa-sir, nemis tilida *raunen-sirli*,

sehrli ma`nolarini ifodalaydi. Germanlarda runa alfaviti Katta Runa deb ataladi va 24 belgidan iborat. Runa yozuvi asosan yog`ochlarga, metallarga, qabr toshlarga, tilla buyumlarga o`ymakorlik uslubida bitilgan. Angliyada Runa yozuvi bitilgan yodgorliklardan eng diqqatga sazovorlari Nortumbriyadan topilgan kuticha va Shotlandiyadan topilgan Rutvel tosh hochida bitilgan diniy mazmundagi she`r hisoblanadi. Anglosakslarning ingveonlar dialektida runa harflarining soni dastlab 28 tagacha ko`paygan; 9-10-asrlarning Qadimgi Ingliz tilidagi "Runa qo`shig`ida"gi runalar soni 33 taga yetadi. Runa yozuvi German tillari leksikasida ham o`z aksini topa boshladi.

Masalan, nemis tilida *Buchstab* - kitob javoni ma`nosini anglatga,

Got tilida *hoka* harf, ko`plikda *bokos*- kitob,

Qadimgi Ingliz tilida *bocstaf*.

Undan tashqari,

Ingliz tilida (*to*) *read* - dastlabki ma`nosi "uylab topmoq", «ugadivat» ifodalagan yoki *write* - yozmoqning dastlabki ma`nosi "tirnamoq", «sarapat» ma`nolarini ifodalagan.

Germanlar 4-12- asrlarda xristianlashtirish jarayonida lotin yozuvi bilan tanishadi Gotlar esa Grekcha bilan tanishadi. Natijada runa yozuvi Lotin yozuvi hisobiga 9 asrda franklar davlatida, 11 asrga kelib esa Britaniya orollarida butunlay iste`moldan chiqib ketadi. Shunga qaramay runa yozuvi an`anaviy ravishda Skandinaviya va Daniyada 13-asrgacha, Shvetsiyada 16-17- asrlargacha saqlanib qoladi; ammo, undan sung runa yozuvi lotin va got yozuvi raqobatiga bardosh bermaydi. 19- asr o`rtalarida aytishlaricha runa alfaviti 2-3-asrlarda shimoliy Italiya alfavitidan kelib chiqqan, va keyin g`arbiy german qabilalari uni qabul qilib, boshqa german qabilalariga tarqatishgan. Shuni qayd etish joizki, runa yozuvi German qabilalarining Buyo`q Kuchish daridagi buyo`q madaniy kashfiyotlaridan biri bo`ldi. Ammo, bu yozuv keng tarqalmadi.

5. Lotin yozuvi

Germanlarning xristianlashuv jarayonida ularning malakatidagi bo`lajak tilning barcha muhim ijtimoiy va madaniy funksiyalarni lotin tili bajaradi. Chunki o`sha davrda yagona yozma va adabiy til Lotin tili edi. U cherkov va monastirlarda to`liq ishlatilar edi. Monastir maktablari nafaqat diniy targ`ibotni rivojlantirdi, balki asosiy madaniyat o`chog`i hisoblanardi. Lotin tili alfaviti turli o`zgarishlarga uchradi. Hozirgi zamon German tillari alfavitlari, negizi lotin alfaviti bo`lishiga qaramasdan, ham son jihatdan, ham harflar tarkibiga ko`ra lotin tili alfavitidan farq qiladi. An`anaviy German orfografiyasi ko`p asrlar mobaynida shakllandi va talay munozarali jihatlari mavjud. 15-asr oxirida , Uyg`onish davrida Italiyada matbuot uchun «antikva» deb nomlangan bosma harflar ishlab chiqildi. Bu lotin shriftining bir ko`rinishi bo`lib, u got shriftini siqib chiqardi. 16-asrdan boshlab antikva G`abiy Ovrupa mamlakatlarida keng tarqaldi va o`z vaqtida uning turli xil variantlari ishlab chiqildi. Germaniyada chet tili matnlarini chop qilish uchun antikvadan foydalanishardi. Hozirgi kunda ham German va roman tillari orqali G`arbiy Evropa hududidan tashqarida tarqalgan lotin shrifti antikvaning turli variantlarida namoyon bo`ladi.

6. Got yozuvi

Taxminan 11-asrlarda Italiyada lotin alfaviti bazasida yangi turdagi yozuv paydo bo`ldi, va u 11-asr oxirlarida Ovrupaning boshqa davlatlarida tarqala boshlaydi. Yangi yozuvning vazifasi me`morchilik orqali xristianlik g`oyalarini yoyish edi. Bu uslub dunyo madaniyatiga katta ta`sir o`tkazib, natijada ko`pgina nodir binolar Qad ko`tardi; masalan, Parijda Notr-Dam, Venada avliyo Stefena, Londonda Vestminister Abbat va bir talay boshqalar.

Uyg`onish Davri germanlardan gotlar, vandallarda tez rivojlanib, o`rta asrlarning 15- asri me`morchilik uslubi got uslubi deb atala boshlandi (ya`ni nemis tilida Gotisch, Inglizchada esa gothic). Burchakli, uchi o`tkir yozuv ham xuddi shu nom bilan nomlana boshladi. Ushbu nom singib ketdi va vaqt o`tishi bilan o`z

bahosini yo`qotdi. Aslida me`morchilikdagi got usuli ham, got harfining ham gotlarga hech qanday aloqasi yo`q.

Ko`pchilik Ovrupa mamlakatlarida got yozuvi asr o`rtasida keng qo`llanilgan (Germaniyada, Angliyada, Fransiyada) va keyinchalik u Lotin tili tomonidan siqib chiqarilgan. Faqat Germaniyada bu yozuv mustahkam va uzoq muddat saqlanib turdi. Maktablarda shu yozuvda o`qitishgan, kitob chop qilishda va matbuotda, hatto xatlar yozishda shu yozuvdan foydalanishgan. Fashistlar diktaturasi davrida Got yozuvi haqiqiy nemis yozuvi deb e`lon qilindi. Ikkinchi jahon urushidan so`ng Got harflari asta-sekin lotin yozuvi tomonidan siqib chiqarildi. Buning asosiy sababi - nemis tilida chop qilingan asarlarni chet elliklar uchun tushinarliroq bo`lishini ta`minlashdir.

3- ma`ruza

Mavzu: German tillarida fonemalar tizimi va urg`u

Reja:

1. Urg`u va uning turlari.
2. Unlilar tizimi
3. Ablaut va uning turlari
4. Umlaut
5. Undoshlar tizimi va ularning birinchi siljishi
6. Verner qonuni

Kalit so`z va iboralar:

urg`u, fonema, bo`g`in, tonik (she`rda urg`uli va urg`usiz bo`ginlarning muayyan tartibda kelishiga asoslangan), dinamik, ekspirator, belgilangan, laxja, qisqa, cho`ziq, baland, o`rta, past, ko`tarilish, vokallanish, unli, ablaut, umlaut, assimilatsiya, fleksiya, unlilashish, jarangsiz, portlovchi, jaranglilashish.

Adabiyotlar:

1. Рахимов Х.Р. Введение в германскую филологию. Тексты лекций. -Т.:ТДПУ 2000.-68с.
2. Иванова И.Т. Хрестоматия по истории английского языка. - Л: Просвещение, 1973.-310 с.
3. Мейе А. Основные особенности германской группы языков. - М: Изд-во. литературы на иностранных языках, 1952.-280 с.
4. Расторгуева Т.А. История английского языка. - М: Просвещение, 1983.-321с.
- 5 Гухман ММ. Готский язык. - М: Изд-во литературы на иностранных языках. 1958 - 190 с.
- 6 Жирмунский В.М. Введение в сравнительно-историческое изучение германских языков. - М, - 1б: Просвещение, 1964.-214 с.

1. Urg`u

Umum-hind-ovrupa tillarida urg`u ikki xususiyati bilan farqlanadi. Birinchi xususiyat shundan iboratki, bo`ginlarning birida ovoz (ton) ko`tariladi. Bunday

urg`u tonik yoki musiqali urg`u deb ataladi va nafas kuchi bilan xarakterlanadigan dinamik urg`udan shunisi bilan farqlanadi. Qadimgi hind-ovrupa - sanskrit va grek - tillariga taalluqli yozma yodgorliklarda baland tonli bo`g`inlarni ajratadigan tizimli belgilardan foydalanilgan, masalan, sanskrit tilida varah- aylana, varah-saylov; grekchada tomos-bo`lak, tomos-o`tkir. Demak, urg`u ma`no ajratish funksiyasini bajargan.

Hind-ovrupa tillari urg`usining ikkinchi xususiyati uning erkinligidir. Umumgerman tillarida erkin urg`u bosh bo`g`inga (o`zak) tushadigan turg`un urg`uga o`zgardi. Tonik urg`u esa dinamik urg`uga o`zgaradi. Hozirgi kunda tonik urg`u Shed va Norveg tillarida, shuningdek ayrim Daniyaliklar lahjasida uchraydi.

2. Unlilar tizimi.

So`nggi umum hind-ovrupa davrida unlili fonemalar tizimi tiklanib, ular beshta qisqa va beshta cho`ziq fonemadan tashkil topadi:

Yuqori ko`tarilgan unlilar	i, ī	u, ū
O`rta ko`tarilgan unlilar	e, ē, o, ō	
Quyi unlilar	a ā	

Ushbu unililardan tashqari yana qisqa unli [ə] ham bo`lib, u asosan urg`usiz bug`inlarda uchraydi va ablaut natijasida cho`ziq unliga aylanadi. U sanskrit tilida i, boshqa xind-ovrupa tillarida a shaklida keladi.

Asosiy qisqa unlilar e va o bo`lib, ular ham unlilar almashinuvida ishtirok etadi. Sof unlilar esa ē, ō, ā, ī, ū lar hisoblanadi. Umumgerman tillarida qisqa va cho`ziq unlilar o`rtasidagi farq saqlanadi. Eng muhim o`zgarishlar unlilar tizimida yuz beradi. Hind-ovrupa tillaridagi o German tillarida a ga aylanadi. *Rota* (g`ildirak) - Qadimgi german tilida *rad* bo`ladi.

German tillarida vokalizmni o`rganishda ikki davrga e`tibor berish lozim, ya`ni umumgerman tillarining birlashgan davri hamda german tilarining alohida

boʻlgan davri. Umumgerman tillarida unlilar tizimi qisqa va choʻziq fonemalardan tashkil topgan.

German tillarining qisqa **a** unli fonemasi hind-ovrupa ikki unli ā va ō fonemalariga mos keladi.

Masalan:

Grekcha *hortos*, lotincha *hortus* – bogʻ

Lotin *hostis*-mehmon; Run. *gastir*, Got *gasts*, Eski nemisda. *gast*

Yoki hind-ovrupa tillarida ū german tillarida u, qisqa unlisi orqali beriladi.

Masalan: Sansrit tilida: *sūnū*, (oʻgʻil farzand)

Got tilida: *sunus*,

Qadimgi Ingliz, Qadimgi yuqori nemis, Qadimgi skandinav tillarida: *sunu*,

Runada: *sunur*,

Qadimgi island tilida: *sunr*

Hind-ovrupa tillaridagi **e** german tillarida **i** orqali ifodalanadi:

Lotincha *ventus* -shamol

Qadimgi Ingliz tilida -wind,

Qadimgi yuqori nemis tilida -wint,

Qadimgi skandinav tilida -wind,

Qadimgi island tilida -vindr.

Undan tashkari hind-ovrupa tillaridagi **u** german tillarida **o** orqali ifodalanadi:

Sanskrit *jugam* (zulm),

Grekcha *zygon*,

Qadimgi Ingliz tilida *Zeoc* yoki *zoc*,

Qadimgi yuqori nemis tilida: **joch**,

Qadimgi skandinav tilida *ok*.

Choʻziq unlilar ham quyidagicha oʻzgaradi:

Hind-ovrupa tillardagi ā german tillarida ō orqali beriladi:

Sanskrit **mātār**,

Grekchada **mātēr**,

Lotinchada *Mātēr*,
 Qadimgi Ingliz tilida *mōdor*,
 Qadimgi skandinav tilida *mōdor*,
 Qadimgi yuqori nemis tilida *mōter*,
 Qadimgi island tilida *moðir*.

Umuman, hind-ovrupa tillaridagi unlilar tizimi german tillarida quyidagicha
 oʻzgaradi:

Hind Ovrupa	Umum- german	Got	Qadimgi Ingliz	Qadimgi yuqori Nemis	Qadimgi skand.	Qadimgif riz	Qadimgi sland
a,o,e	a	a	x	Ǻ	a	a	a
E	e	i	e/i	e/i	e/i	e/i	e/i
a,ō	ō	ō	ou	ō	ō	ō	ō
Ē	ē > æ	ē	æ	Ǻ	ā	ē	ā

3. Ablaut va uning turlari

Ablaut (nem. Ablaut, Ingliz Gradation) unlilarning almashinuvi boʻlib, ular muntazam ravishda soʻz yasashda yoki soʻz oʻzgartirishda qoʻllaniladi. Bu hodisa asosan soʻz oʻzagidagi, suffiksdagi yoki qoʻshimchalardagi unlilarning almashinuvi boʻlib, soʻzning grammatik shakli yoki maʼnosiga bogʻliq holda yuz beradi. Unlilarning bunday almashinuvi German tillariga nisbatan com (cemit) tillarida keng tarqalgan.

Masalan: arab. gatala-oʻldirmoq, gātela-oʻldirishga oʻrinmoq, agatala-oʻldirishga majburlamoq, gutila-oʻldirilgan.

Ablaut tufayli unlilarning almashinuvi ikki xil boʻladi: sifatli va miqdoriy.

Sifatli ablautda asosan qisqa va cho`ziq unlilarning almashinuvi nazarda tutiladi e-ē, o-ō. Hind-ovrupa tillarida sifatli ablautning eng keng tarqalgan- turi e>o dir: Grek. lego-gapirayapman, logos-so`z; Lotin. tegō-yopaman, toga-kiyim-kechak.

Unlilarning cho`ziqligiga qarab ablaut uch darajada bo`ladi: mo`tadil (o`rta) daraja, cho`zilgan daraja va nolga teng daraja. Mo`tadil darajada ē va ō fonemalarida cho`zilish sodir bo`ladi:

Lot. sedeō - o`tirayapman->sēdi -o`tirdim(e--> ē ga o`zgarmoqda);

Grek. pōs-oyoq-podos-rod.padej.

Nolga teng daraja- unli reduksiyasi, ya`ni uning tushib qolishi demakdir. Sanskrit karomi-bajaraman->kratah-bajarilgan. Ushbu har uch darajali ablaut grekchada otning kelishiklarda turlanishida ko`zga tashlanadi:

patēr- ota

bosh kelishik: patēr- cho`ziq daraja

qaratqich kelishikda: patros- nolga teng daraja.

Ablaut tufayli fonemalarining o`zgarishi hodisasi turlicha urguning ta`sirida kelib chiqadi. Sifatli ablaut musiqali urg`u bilan bog`liq. Miqdoriy ablaut hodisasida eng ko`p tarqalgan fonemalar ē, ā nol kabilar. German tillarida nol darajadagi ablaut so`zlarda m,n,l,r fonemalaridan oldin u rivojlanadi.

Masalan:

Got tilida qiman-kelmoq-qums-kelish;

Qadimgi island: stella-o`g`irlamoq->stuldr-o`g`irlik;

Qadimgi Ingliz: fela-ko`p-full-to`la;

Qadimgi island: koldr-sovuq -> kuldi-ayoz.

German tillaridagi eng ko`p tarqalgan ablaut formulasi ē, ā -nol.

German tillarida ichki fleksiya sifatida ablaut so`z o`zgarishida ham, so`z yasalishida ham o`z vazifasiga ega bo`lsa-da, keng va muntazam ravishda so`z o`zgarishida, hamda grammatik ma`no o`zgarishida ko`p uchraydi.

4. Umlaut.

German tillarida o`zakdagi unlining qo`shimchadagi unliga assimilaqiyasi fonetik hodisasi ko`zatilgan. German tillarida o`sha davrda qisman regrissiv assimilatsiyasi keng tarqalgan bo`lib, uni Yakob Grimm umlaut deb nomladi, ya`ni unlilarning unlilarga o`zgarishi (Nem. umlaut, Ingliz.-mutation).

Umlaut natijasida, ya`ni ichki fleksiya natijasida grammatik ma`nolar ham o`zgaradi:

Qadimgi Ingliz tilida lonzira-lenzra-uzunroq, fōti-frēt-fæ̃t-oyoqlar;
fulljan-> fyllan-to`ldirmoq.

Umlaut natijasida fonemalarning palatallashuvi (yumshash) ko`proq nemis tilida uchraydi.

5. Undoshlar tizimi va ularning birinchi siljishi

Hind-ovrupa tillari va German tillarini qiyosiy-tarixiy o`rganish umumgerman tillarida undoshlar sistemasini quyidagicha tasniflash mumkin:

Shovqinli fonemalar	Jarangsiz portluvchilar : p,t,k
	Jarangli sirg`aluvchilar: b,d,g
	Jarangsiz sirg`aluvchilar: f, β,h

Sonor fonemalar: j,w,r,l,m,n.

German tillaridagi undoshlarni hind-ovrupa tillaridagi undoshlar bilan qiyoslaganda ayrim fonemalari tulig`icha mos keladi. Biroq, hind-ovrupa tillari va German tillarining shovqinli undoshlari qiyoslanganda muayyan o`zgarishlar mavjudligiga guvoh bo`lamiz. Bunday o`zgarishlarni Rasmus Rask va Yakob Grimmlar undoshlarning birinchi siljishi deb ataydi (The First Consonant Shift).

Hind-ovrupa tillari va German tillari undoshlarining to`g`ri kelish munosabatini quyidagicha tasniflash mumkin:

1) Hind-ovrupa tillari p,t,k -> German tillari: f, Þ, h

Sanskritda *piter*,
Grek tilida *peter*,
Got . *fadar*,
Qadimgi Ingliz tilida *fæder*, q
Qdimgi yuqori nemis tilida *fater*,
Qadimgi island. *faðir*

2) Hind-ovrupa tillari bh, dh, gh German tillari b,d,g

Sanskrit *bhratar*-
Got.brōþar,
Qadimgi Ingliz tili brōþor,
Qadimgi island brōþir,

3) Hind-ovrupa tillaridagi b,d,g -> German tillarida p,t,k

Litov tilida slabnas-nimjon ->

Got. *slēpan*,

Qadimgi Ingliz tilida *slæpan*-uxlamoq

Shunday qilib, lotin tilida birorta ham shovqinli undosh yo`qki, hind-ovrupa tillarida o`zgarmay qolgan bo`lsa.

Undoshlarning birinchi siljishi davrida jarangsiz portlovchilar jarangsiz sirg`aluvchilarga o`tgan bo`lsa, jarangli portlovchilar jarangsiz portlovchilarga aylangan.

6. Karl Verner qonuni

U asosan German tillaridagi sirgaluvchi tovushlarning jarangeizligicha qolishi yoki jaranglilashuvi hind-ovrupa tillaridagi so`zlarning qaysi bo`g`iniga urg`u tushishiga bog`liq ekaniga e`tibor berdi. Undoshlarning jaranglilashuvi asosan so`zlarda undoshlardan oldin kelgan unliga urg`uning tushishi yoki tushmasligiga bog`liq ekanligini qayd etadi.

Karl Verner qonuniga asosan hind-ovrupa tillari va German tillaridagi undoshlarning o`zgarishini quyidagicha `ayd etish mumkin:

Hind-ovrupa tillari		German tillari
Opa		ofa oĤa oba
Ota		oċa oĤa oda
Oka		oha oga
Osa		osa oza oza

4- ma`ruza

Mavzu: German tillarida morfologik qurilishida asosiy belgilar

Reja:

1. So`zning morfologik qurilishi.
2. Otlarning turlanishi:
 - a) unlilar asosida
 - b) undoshlar asosida
3. Sifatning turlanishi va qiyosiy darajasi
4. Fe`lning morfologik tasnifi
5. Fe`lning grammatik kategoriyalari

Kalit so`z va iboralar:

Tizim, turlanish, so`z, o`zak, suffiks, ikki morfemali, negiz, qo`shimcha, uch morfemali, kelishik, tuslanish, kuchli, kuchsiz, mujskoy/jenskiy rod, to`g`ri, noto`g`ri, shaxs, son, zamon, mayl, aniqlik, buyruq, shart, nisbat, mediopassiv, infinitiv, sifatdosh I,II.

Adabiyotlar:

1. Рахимов Х.Р. Введение в германскую филологию. Тексты лекций. -Т.:ТДПУ 2000.-68с.
2. Иванова И.Т. Хрестоматия по истории английского языка. - Л: Просвещение, 1973.-310 с.
3. Гульга Е.В. и др. Хрестоматия по истории грамматических учений. -М:МГПИЯ, 1972.-269 с.
4. Мейе А. Основные особенности германской группы языков. - М: Изд-во. литературы на иностранных языках, 1952.-280 с.
5. Расторгуева Т.А. История английского языка. - М: Просвещение, 1983.-321с.

1. So`zning morfologik qurilishi

Qadimgi German tillarida so`zlarning qurilishi yoki qayta qurilishi eng muhim jarayonlardan biri hisoblanadi. Hind-ovrupa tillaridagi uch morfemali so`z+negiz yasovchi suffiks+qo`shimcha ikki morfemali so`zlarga aylanadi: negiz+qo`shimcha.

Negiz yasovchi suffikslar kelishiklarda uchraydigan fleksiya holatiga qo`shilib ketadi yoki o`zakka birikib ketadi. Shu yo`sinda so`zlarning morfologik qurilmasida o`zgarishlar ro`y beradi. So`zlarni negizga ajratish leksik ma`noni anglatrsa, qo`shimcha esa grammatik ma`noni ifodalaydi.

Masalan: *fæder* (ota) -*fæder*+*as* (otalar)

Ikki morfemali so`z qurilmasi german tillarida keng tarqalgan bo`lsa, uch morfemali so`zlar got va runa yozuvlarida ko`p uchraydi. Tillarda morfema tarkibi qo`shimcha prefikslar, suffikslar va so`zlarning tuzilishiga ko`ra bundan ham murakkabroq bo`lishi mumkin.

Masalan: Got tilida *un-kuð-bilimsizlik*,

Qadimgi Ingliz tilida *un-eaðe-lik-qiyin*.

2. Otlarning turlanishi

Qadimgi german tillarida otlarning rod, son va kelishik kabi morfologik kategoriyalari bo`lgan.

Qadimgi german tillarida otning son kategoriyasini ifodalashda morfologik ko'rsatkichlari bo'lmasa-da, kelishiklardagi fleksiya son kategoriyasini ham ifodalagan.

Otning uchta rod kategoriyasi bo'lgan. Ularni bir-biridan farqlash esa ot negizlarini klasslarga bo'lish asosida bo'lgan. Shu tufayli turli grammatik roddagi otlar turli kelishik va son shakllari orqali ifodalanadi.

Negiz turlarini aniqlash qadimgi german tillaridagi ma'lum faktlardan foydalanib, rekonstruksiya usuli orqali amalga oshiriladi. Ayniqsa, got tillaridagi ot paradigmasi, eng qadimgi skandinav, tillaridagi, runa yozuvidagi kelishik shakllari, hamda boshqa hind-ovrupa tillaridagi ma'lumotlarni qiyoslash bunda muhim o'rin tutadi.

Qiyosiy grammatika german tillaridagi otlarni unlilar asosida farqlaydi: -a-, -ō-, -i-, -u-, . Bu kuchli turlanishga kiradi. Undoshlar -n-, -r-, -s. Bunda -n- asosida kuchsiz turlanish yuz beradi.

a) Unlilar asosida turlanish

-a- unlisi asosida turlangan mujskoy va sredney roddagi otlarning negizi hind-ovrupa tillaridagi -o- negizli otlarga mos keladi.

Got. m.r. *staims* -tosh, -cp.p. *waurd* - so'z

Qad. ing. m.r. *stān* -sr.r bān - suyak

Qad.yo`q.nem. m.r. *walf-bo`ri* -sr.r barn-bolalar

-ja - asosida turlanganda shimoliy va g`arbiy german tillarida -j-unlilashadi:

Got. *Harjis* – qo`shin,

Qad.ing. *here*,

Qad.yuqori nem. *heri*

-ō- asosli turlanadigan otlar grek tilida *chōra* - soat, lotin tilida *rosa* - roza, rus tilida *golova* - faqat jenskiy rodga taaluqli bo'lgan.

-/- asosli otlar Qadimgi german tillarida faqat mujskoy va sredney rod guruhiga kirgan.

Masalan:

Got. m.r. *gasts-mehmon* j.r. *qēns-xotin*

Qad.Ingl. m.r. *wine-do`st* j.r. *dæd-sovg`a*

Qad.yuq.nem. m.r. *gast-mehmon* j.r. *math-kuch*

-u- asosli otlar uchala rodga taalluqli bo`lsa-da, ko`pchiligi mujskoy rodni tashkil qiladi.

Got.m.r. *sunu-tish*,

Qad.Ingl.m.r. *sunu*,

Qad.yuq.nem. m.r. *sunu*

Got.j.r. *handus-qo`l*,

Qad.Ingl. j.r. *hand-ruka*

b) Undoshlar asosida turlanish

Qadimgi german tillarida negiz yasovchi suffiks -n - unlilar bilan murakkablashadi, u esa rodlarni bir-biridan farqlovchi hisoblanadi. Ya`ni, -an-/-in- negizli otlar mujskoy va sredney rodlar paradigmasini ifodalasa, -ōn- va -in- negizli otlar jenskiy rod otlarining morfologik ko`rsatgichlaridir.

Masalan: bosh kelishik, birlik, muj.rod,

Got tili *hana-xo`roz*,

Qad.Ingl. *hana*,

Qad.yuq.nem. *hano* qaratqich kelishik:

Got tili *hanins*,

Qad.Ingl. *hanon*,

Qad.yuq.nem. *hanen* yoki, bosh kelishik, birlik, jen.rod,

Got. *tuggō*,

Qad.Ingl. *tunze*,

Qad.yuq. nem. *runga-til*; qaratqich kelishik:

Got tili *tuggōns*,

Qad.Ingl. *tunzan*,

Qad.yuq.nem..*zungūn*.

-s- negizli otlar got tilidan boshqa german tillarida rotatsizm hodisasiga uchraydi: $s > z > r$:

Got. *Housjian*

Qad.Ingl. *horen*,

Qad.yuq.nem. *hūren*.- eshitmoq

-r - negizli otlar barcha german tillarida mavjud bo`lib, ular asosan, mujskoy va sredney rodga kiruvchi otlar hisoblanadi. Ular asosan, qavm-qarindosh ma`nolarini ifodalovchi otlardir:

Got. *fadar*,

Qad.Ingl. *freder*,

Qad.yuq.nem. *fater*-ota

Qad.Ingl. *modor*,

Qad.yuq.nem. *muoter*-ona.

-nt- negizli otlar asosan mujskoy rod otlari bo`lib, hozirgi zamon sifatdosh II ning otlashishidan paydo bo`lgan.

Got. *nasjants*,

Qad.Ingl. *hæland*,

Qad.yuq.nem. *heilant*- qutqaruvchi.

Qadimgi german tillarida otlarning to`rt kelishigi, ya`ni bosh, qaratqich, jo`nalish va tushim kelishiklari mavjud bo`lgan.

3. Sifatning turlanishi va qiyosiy darajasi

Hind-ovrupa tillarida sifatda ham ot negiz qanday bo'lsa, xuddi shunday turlanish mavjud edi. Hind-ovrupa sifatlari -o- negizlisi german tillarida –a- mujskoy va sredney rodlarida. Hind-ovrupa sifatlari -ā- negizlisi german tillarida -ō - mujskoy va sredney rodlarida.

Qadimgi german tillarida sifat ham kuchli va kuchsiz turlanishga ega bo'ladi. Kuchsiz turlanish -n-negizli sifatlarda rivojlanadi.

Qadimgi german tillarida sifatlarning kuchli va kuchsiz turlanishi natijasida aniqlik va noaniqlik kategoriyalari bir-biridan farqlanadi. Qadimgi german tillarida sifatning qiyosiy darajasi -iz-, -ōr- qo'shimchalari orqali ifodalansa, orttirma daraja -ist; -ōst- suffikslari orqali ifodalanadi.

Qad.Ingl. *lang-legzra-lingest*

Qad.yuq.nem. *lang-lengiro-lengist*

Ayrim sifatlarda, ayniqsa, mavhum asliy va miqdoriy belgilarni ifodalovchi sifatlarning daraja kategoriyasi supplitiv usulda ifodalanadi:

Qad.Ingl. *lȳtel-læsse.-læst.*

4. Fe'llarning morfoloGik tasnifi.

Qadimgi german tillarida barcha fe'llar o'tgan zamon shaklining ifodalanishiga qarab, ikki guruhga bo'linadi: kuchli va kuchsiz fe'llar. Qadimgi german tillarida kuchli fe'llar o'zakdagi unlilarning almashinuviga qarab yetti klassga bo'linadi.

I-V klass kuchli fe'llar got tilida fe'lda uchraydigan ablaut asosida tahlil qilinadi. Got tili kuchli fe'llarining o'zakdagi unlilar almashinuvi boshqa german tillari fe'llarida uchraydigan ablaut fonetik o'zgarishlar natijasida anchagina murakkablashadi.

Kuchli fe'llarning VI va VII klassga tobelari shakl yasovchi hodisaning asosini tashkil etadi.

Qadimgi german tillarida VI fe'llarning barchasida unlilarning miqdoriy almashinuvi sodir bo'ladi:

German tillarida a>ō (hind-ovrupa tillarida o>ō).

Tillar	Inf	O'tgan zamon birlik	O'tgan zamon ko'plik	Sifatdosh II
Got.	Faran	Fōr	Fōrum	Farans - bormoq
Qad.angl	Faran	Fōr	Fōron	Faren
Qad.yuq.nem	Faran	For	Fuorum	Gifaran

Ayrim VII klassga xos got tili fe'llarda bir vaqtning o'zida o'zakdagi unlining almashinuvi bilan bir qatorda reduplikatsiya hodisasi ham sodir bo'ladi: *lētan-qoldirmoq, lailōt, lailōtum-lētans*.

Kuchsiz fe'llar otlardan yoki boshqa fe'llardan ikkinchi marta shakllangan hisoblanib, o'tgan zamonda asosan, dental suffikslar -d-/-t- variantlari yordamida zamon kategoriyasini ham ifodalagan. Qadimgi german tillari kuchsiz fe'llari 4 guruhga bo'linadi:

1. klass. -ja-negizli:

Got. *sōkjan*,

Qad.Ingl. *dēman*-muhokama qilmoq.

2. klass, -ō- negizli:

Got. *fiskōn-baliq* tutmoq,

Qad.ingl. *macian* - qilmoq

3 klass, -ai- negizli: faqat got tilida o'tgan zamonda va o'tgan zamon sifatdosh shaklida: *haban-habaida-habaiǣ* - *ega bo'lmoq*, boshqa german tillarida esa fe'llarga dental suffikslar qo'shilishi orqali ifodalanadi:

Qad.Ingl. *habban-hæfde*;

Qad.yuq.nem. *habēn-habēta*.

4 klass. Faqat got tilida -na-/nō- negizli fe'llar kiradi.

Got: fullnan-to`ldirmoq-fullnōda

5. Fe`lning grammatik kategoriyalari

Qadimgi german tillari fe`llarida shaxs, son, zamon (hozirgi va o`tgan), mayl (aniqlik, buyruq, optativ), nisbat (aniqlik va mediopassiv), hamda fe`lning shaxssiz formalari - indikativ, sifatdosh I va II, mavjud bo`lgan.

O`sha davrda shaxs ko`rsatkichlari fe`l kategoriyalarini ham ifodalagan.

Masalan: Got tilida *niman-olamiz*, -an qo`shimchasi 1 shaxs, ko`plik, aniqlik mayli, aniq nisbat, hozirgi zamon singari kategoriyalarni ifodalagan.

5- ma`ruza

Mavzu: Umumgerman leksikasi

Reja:

1. Umumgerman etimologik leksik parallellar
2. Kelt va Lotin tillaridan leksik birliklarning ilk o`zlashishi
3. German tillarining o`zaro aloqasi
4. G`arbiy german tillarida fonetik izoglossalar (bir-biriga yaqinlashtiruvchi belgilar)
5. G`arbiy german tillarida morfoloGik izoglossalar
6. Rototsizm

Kalit so`zlar:

etimologiya, parallel, izogloss, areal, lug`aviy fond, razryad, tana qismlari, hayvonlar va usimliklar nomlari, o`zlashtirish, kelt, lotin, unlilar siljishi, undoshlarning birinchi siljishi, uzayish, skandinav, runa, rototsizm.

Adabiyotlar:

1. Рахимов Х.Р. Введение в германскую филологию. Тексты лекций. -Т.:ТДПУ 2000.-68с.
2. Арсеньева М.Г. и др. Введение в германскую филологию. - М: Высшая школа, 1980.-319 с.
3. Ярцева В Л. Развитие национального литературного английского языка. -М: Наука, 1969.- 199 с.
4. Мейе А. Основные особенности германской группы языков. - М: Изд-во. литературынаиностранных языках, 1952.-280 с.
5. Расторгуева Т.А. История английского языка. - М: Просвещение, 1983.-321с.

1. UmumGerman tillarida etimoloGik parallellar

Qadimgi german tillari lug`at fondida ko`pgina leksik yaqinliklar mavjud bo`lib, ular german areallaridan chetga chiqmaydi. Mazkur etimologik parallellar umumgerman lug`at fondini tashkil qilib, asosan, umumgerman davrida sodir bo`ladi.

Umumgerman etimologik parallellarini Qadimgi german tillaridan quyidagi misollar yordamida berish mumkin:

1) **Ot soʻz turkumida**. Bu razryad bir qancha tematik guruhlariga boʻlinadi:

a) tana qismlari nomlari:

Got. *handus*,

Qad.Ingl. *hand*,

Qad.yuq.nem *hant*

b) hayvonlar va oʻsimliklar nomlari:

Got. *fugls-qush*.

Angl *fuzol*,

Qad.yuq.nem *fogal*

v) tabiiy va jugʻrofiy tushunchalar:

Got. *swais* - dengiz, ring.

Qad.Ingl. *sæ*, ren-rizn;

Qad.yuq.nem. *sēo*, regan

g) Ayrim predmet nomlari:

Qad.Ingl. *brycz*-koʻprik,

Qad.yuq.nem-brucha;

d) Mavhum tushunchalar:

Qad.Ingl. *Iif-hayot*,

Qad.yuq.nem *lib*,

Qad.island. *lif*

2) **Feʼllarda** leksik-grammatik soʻzlar etimologik parallellari koʻplab uchraydi:

Got. *drigkan*,

Qad.Ingl. *drincan*,

Qad.yuq.nem *trincan*-ichmoq; *sandjan sendan senten* – joʻnatmoq

3) **Sifatlarda** ham quyidagi etimologik parallellar bor:

Got. *braiǫs*,

Qad.Ingl. *brād*,

Qad.yuq.nem *breit* – keng; *siuks- sēoc -sich* - kasal

4) Olmoshlarda:

Got. *swaleiks*,

Qad.Ingl. *swilc*,]

Qad.yuq.nem. *solih* - shunday

5) Ravishlarda:

Got. *ufta*,

Qad.Ingl. *ost*,

Qad.yuq.nem *oft*-tez-tez.

German tillari lug`at fondining 30% ni umumgerman leksikasi tashkil qiladi.

2. Kelt va Lotin tillaridan dastlabki o`zlashtirishlar

German tillarining leksik fondi rivojlanish jarayonining turli davrlarida kelt va lotin tillari leksikasi hisobiga boyib bordi. Nogerman etnik guruhlardan germanlar keltlar bilan to`qnashgan va natijada kelt va lotin tillaridan ko`plab so`zlar o`zlashgan.

Masalan:

Kelt, *īsemo* - temir.

Got. *eisam*,

Qad.Ingl. *īsem/iren*,

Qad.yuq.nem. *isam* yoki *isan*

Kelt *rig* -hukmdor ->

Got., *raiks*,

Qad.Ingl. *rice*,

Qad.yuq.nem *rikhi*.

Keltlardan o`zlashtirilgan qatlam german tillari leksikasiga ham german tillari paydo bo`lish davrida kirib kelgan. Lotin tilidan o`zlashgan so`zlar germanlarning parokandalikka uchragan davriga to`g`ri keladi. Ammo, turli german tillaridagi

o`zlashma so`zlar bir-biriga juda o`zshash. Lotin o`zlashmalari ushbu qatlamining xarakterli xususiyati shundaki, ular asosan og`zaki nutq orqali kirib kelib, tezda umumiy iste`molga tarqalgan. Mazkur qatlamdagi so`zlar Rim sivilizatsiyasining qadimgi germanlar madaniyati va ijtimoiy turmush tarziga o`tkazgan turli ta`sirlaridan guvohlik beradi.

Lat. molina - tegirmon,

Qad.Ingl. mylen,

Qad.yuq.nem mulin

Lat vinum - vino,

Got. wein,

Qad.Ingl. win,

Qad.yuq.nem win

Lat. coquina - oshxona

Qad.Ingl. cucene,

Qad.yuq.nem chuhkina

German tillarining mustaqil rivojlanishi davrida hind-ovrupa tillaridan farqli belgilari ko`payib boradi. Ayniqsa, unlilarning siljishi, undoshlarning birinchi siljishi, morfologiyada sifatlarning kuchsiz turlanishi, kuchsiz fe`llarning o`tgan zamonida dental suffikslarning paydo bo`lishi, kuchli fe`llar tuslanishi, shakllanishi (ablaut ta`sirida), German tillari leksik fondining shakllanishida o`z o`rniga ega bo`lgan yangi so`zlar yaratilishi shular jumlasidandir.

3. German tillarining o`zaro aloqasi

German tillari guruhida o`zaro bir-biriga yaqinlik, ularning rivojlanishida aniq tarixiy voqealar ko`zga tashlanadi. Tillarning qadimiy o`zaro aloqasi lingvistik xaritani yaratishga yordam beradi.

Lingvistik xarita turli hududlar tillari o`rtasidagi aloqani, jumladan G`arbiy va shimoliy german tillari o`zaro yaqinligini aniqlashga yordam beradi. Bu guruhlar

tillariga umumiy bo'lgan muhim fonetik, leksik, morfologik izoglosslar ushbu tillar rivojlanish tarixida ularning yaqindan aloqada bo'lganligidan dalolat beradi.

G'arbiy german tillarining sharqiy va shimoliy german tillaridan farqlovchi xususiyatlari aniqlangan.

4. G'arbiy german tillarida fonetik izoglosslar

1) G'arbiy german tillarida undoshlarning cho'zilishi. Bu hodisa undoshlarning qisqa unli va j dan so'ng dubllashishi demakdir.

Got. *satjan*,

Qad.Ingl. *settan*,

Qad.yuq.nem. *sezzen-o'tkazmoq*

Undoshlarning cho'zilishi *r, l, b* dan oldin ba'zan uchragan, juda kam holatlarda esa *n, m, w* dan oldin ham uchragan:

Got *snutrs* - dono,

Qad.Ingl. *snottor*,

Qad.yuq.nem *snottar*.

Undoshlar cho'zilishi *r* dan boshqa barcha undoshlarda sodir bo'ladi:

Got. *nasjam-qutqarmoq*,

Qad.Ingl. - *nerian*,

Qad.yuq.nem - *nerien*

Jarangli sirg'aluvchilar esa portlovchilarga aylanadi: *ff* [uv] ->bb:

Qad.island-sif,

Got.-*sibja* [sivja],

Qad.Ingl.-*sibb*,

Qad.yuq-nem-sibba-sippa- qarindosh.

2) G'arbiy german tillarida jarangli sirg'aluvchi *ō* portlovchi *d* ga aylanadi,

Qad.yuq.nem. tilida esa undoshlarning ikkinchi siljishida *t* ga aylanadi:

Got. *beiden* [bi:ðan],

Qad.Ingl. *biddan*,

Qad.yuq.nem. *bittan*-kutmoq

5. G`arbiy german tillarida morfologik izoglosslar

1) G`arbiy german tillarida sifatdosh II ning kuchli turlanishi muhim ahamiyatga ega.

Qad.Ingl. *bindendu*,

Qad.yuq.nem *bintantiu* – bog`layotgan

2) G`arbiy german tillarining got va qadimgi skandinav tillaridan farqi shundaki, unda infinitivning turlanish formalari mavjud:

Qad.Ingl. jo`nalish kelishik (to) *nimenne*-olish uchun,

Qad.yuq.nem.qaratqich kelishik *nemannes*, jo`nalish kelishik *nemanne*.

3) G`arbiy german tillarida "bo`lmoq" fe`lining hozirgi zamonda shaxs formalari ikki o`zakning qo`shilishi yordamida beriladi:

Birlikda		Ko`plikda	
I shaxs	Bēo	I shaxs	Bēoð
II shaxs	Bist	II shaxs	Bēoð
III shaxs	Bið	III shaxs	Bēoð

6. Rotatsizm

G`arbiy va shimoliy german tillarida **z** undoshining **r** undoshiga aylanish hodisasi ro`y beradi. Bu hodisa Grek harfi (φ) nomi bilan Rotatsizm deb ataladi.

Mazkur o`zgarish, ya`ni rotatsizm hodisasi asosan kuchli fe`llar shakllarida va ayrim leksik parallellarda uchraydi.

Masalan:

Qad.Ingl. *cēosan*->*cēas*->*curon*-*coren* - tanlamoq

Qad.Ingl. *was*-*wæron* -bo`ldi-bo`ldilar.

Oldingi mavjud boʻlgan r harfi z dan paydo boʻlgan z dan fonetik jihatdan, ayniqsa, skandinav va runa yozma yodgoliklari ikki xil belgi bilan, yaʼni r va R orqali beriladi, ammo ularning talaffuzi bir xil.

Masalan, runa yozuvida *dohtriR* - qiz farzand.

6- ma`ruza

Mavzu: German tillari rivojlanishida asosiy bosqichlar

Reja:

1. Qabila tillarining rivojlanishida umumiy qonuniyatlar
2. Xalq tillarining shakllanishi
3. Millatlarning tashkil topishi va milliy tillarning rivojlanishi
4. Sharqiy german tillari guruhi
5. Skandinav tillari

Kalit soʻzlar:

bosqich, qonuniylik, xalq, millat, yozuv, knyazlik, savdo-sotiq, ishlab chiqarish, feodalizm, davlat, umumiylik, territoriya, ijtimoiy, psixologik, madaniyat, Skandinaviya, Zelandiya, siling, markaziy va janubiy Yevropa, Daniya, Hordalan, Norvegiya, Shvetsiya, Vestergetland, Estergetland.

Adabiyotlar:

1. Рахимов Х.Р. Введение в германскую филологию. Тексты лекций. -Т.:ТДПУ 2000.-68с.
2. Арсеньева М.Г. и др. Введение в германскую филологию. - М: Высшая школа, 1980.-319 с.
3. Мейе А. Основные особенности германской группы языков. - М: Изд-во литературы на иностранных языках, 1952.-280 с.
4. Расторгуева Т.А. История английского языка. - М: Просвещение, 1983.-321с.
5. Ярцева В Л. Развитие национального литературного английского языка.-М: Наука, 1969.- 199 с.
6. Богородицкий В А. Введение в изучение современных романских и германских языков. - М: Изд-во литературы на иностранных языках, 1953.— 183 с.

1. Qabila tillari rivojlanishida umumiy qonuniyatlar

Germanlarning ilk yozma yodgorliklari barcha german tillari o`rtasida katta o`xshashlik borligidan darak bersa, qabila tillarining rivojlanishi natijasida farqli tomonlari ham ko`zga tashlanadi. Qardosh qabilalarning birlashishi va qabilalar ittifoqi paydo bo`lishi bilan german tillari rivojlanishida yangi bosqich boshlandi: bir-biridan ajralib ketgan qardosh qabilalarning bir-biriga yaqinlashishi boshalanadi. Bu jarayonda bir til umumqabila tili sifatida boshqalaridan ustunroq qo`yiladi - ushbu til kuchli qabila tili bo`ladi.

German qabilalari tarixi shuni ko`rsatadiki, qabilalar ittifoqi birlashish jarayoni bir bosqichda sodir bo`lmaydi. Xalqlarning Buyuk Ko`chishi davriga qadar hududiy yaqin kichik qardosh qabilalar birlashgan edi. Bunday birlashishlar etnik jihatdan har xil bo`lib, ular qardosh bo`lmagan tillarda gaplashgan. Masalan, ostgot qiroli Erminarih hukumronligi davrida, u boshqargan qabilalar ittifoqiga nafaqat Gotlar, balki, boltiqbo`yi va sharqiy fin qabilalari kirgan.

2. Xalq tillarining shakllanishi

Xalq tillarining shakllanishi u yoki bu feodal mamlakatda yuz berayotgan muayyan tarixiy vaziyatga bog`liq ravishda sodir bo`lgan. agar, feodal davlatda siyosiy va iqtisodiy markaz qancha barvaqt aniqlanib, barcha knyazliklar yagona tan olingan markazga bo`ysunib rivojlansa, xalq tili ham ertaroq shakllanadi.

Savdo-sotiq, ishlab chiqarishning rivojlanishi bilan shaharlarning ahamiyati oshib, feodal parokandalikning o`rniga davlat boshqaruvining yangi tizimi - absolyut monarxiya vujudga keladi va davlat boshqaruvini markazlashtiradi. Feodal tuzimni va urf-odatlarni siqib chiqarish asnosida millat shakllanadi. Millatni tashkil qiladigan belgilardan bo`lmish hudud birligi, iqtisodiy, ruhiy va madaniy hayot birligi bilan bir qatorda til birligi ham muhim sanaladi.

3. Millatlarning tashkil topishi va milliy tillarning rivojlanishi

Umumiy millat tili xalq tili asosida tiklanadi va bu jarayon muayyan tarixiy sharoitdan kelib chiqib, har xil shakllarda bo`lishi mumkin. Shakllanishiga London

lahjasi asos bo'lgan Ingliz milliy tilining vujudga kelish jarayonida sharqiy-markaziy dialektlar shimoliy dialektlarni siqib chiqardi; chunki markaziy-sharqiy dialektlar mamlakat siyosiy va iqtisodiy hayotida muhim o'rin tutgan. Ushbu dialekt asosida Ingliz tili aniqlandi va milliy til sifatida rivojlandi.

Feodalizmdan kapitalizmga o'tish davrida yosh milliy burjuaziya til oldiga aniq talablar qo'yadi: masalan, fanni rivojlantirish, umummilliy madaniyatni ko'tarishda til normasiga e'tibor qaratiladi. Chunki, ushbu talablar feodalizm davrida qo'yilmagan edi. Tilni normallashtirish matbaachilar yagona til birligiga intilishi asnosida boshlandi. Milliy tillarni normallashtirish uchun yozuvchilar va olimlarning ongli faoliyati turtki bo'ldi va milliy grammatikalar, lug'atlar chop qila boshlandi. Milliy til -butun xalq tili bo'lib, o'z ichiga og'zaki va yozma ko'rinishlarni oladi. Ta'kidlash joizki, so'zlashuv tili mamlakat tarixi mobaynida yozma tildan farqlanib kelgan.

Keyinchalik, fan va texnikaning rivojlanishi, aholi o'rtasida madaniyatning tarqalishi, ommaviy axborot vositalarining yangi, qudratli ko'rinishlari, radio, televideniyaning paydo bo'lishi bilan milliy tilning og'zaki shakli yozma shakl ta'sirida ma'lum normaga tushadi.

4. Sharqiy german tillari guruhi

Qadimgi german tillari uchta katta guruhga bo'linadi:

- 1) Sharqiy german tillari, bunga Got tili kiradi;
- 2) Shimoliy german tillari - skandinav tillari, buning tarkibiga qadimgi shimoliy tillar, ya'ni qadimgi shved, qadimgi norveg, qadimgi island, qadimgi daniyaliklar tillari;
- 3) G'arbiy german tillari - qadimgi yuqori nemis tili, qadimgi Ingliz tili, qadimgi sakson tili, quyi frank va friz tillari.

Sharqiy german tillariga asosan gotlar mansub bo'lib, ular o'zlarini gut Tiuda - Gutlar xalqi deb atashadi. Dastlab, Gotlar shimol tomon, Dunaydan Dneprgacha tarqaladilar. 3 asr o'rtalarida Gotlar Rim imperiyasiga hujum qiladi. Ular ulkan harbiy ittifoqqa birlashib tuzib, Bolqon va Kichik Osiyoga yurish

qiladilar. Gotlar Qora dengiz sohillarida joylashib, o'sha yerda ostgotlar va vestgotlarga bo'linadi.

258 yil Gotlar Qrimni zabt etadi. Faqat 18 asrga kelib, qrim gotlari mahalliy aholi bilan butunlay qorishib ketdi. Qora dengiz sohillarida ostgotlar rahbarligida qabilalarning qudratli ittifoqi tuziladi.

Vestgotlar esa Vizantiya imperatoriga Rim imperiyasi hududida jolashish uchun ruxsat so'rab murojaat qilishgan. Ammo vestgotlarning turmush tarzi nihoyatda og'ir edi, ular rim qullari va koloniya ko'magida Rim imperiyasiga qarshi chiqib, uni tor-mor qilishadi. 439 yilda Italiya ostgotlar tomonidan bosib olinadi. Ostgotlar qirolligi 555 yilgacha hukmronlik qiladi. Shu tariqa gotlar va boshqa sharqiy german qabilalari keyinchalik mahalliy aholi bilan aralashib ketib, vaqt o'tishi bilan tarix sahnasidan g'oyib bo'ladi. Got tili germanshunoslikda katta ahamiyat kasb etadi; u haqda qiyosiy-tarixiy tilshunoslik uning yozma yogorliklari bo'yicha to'liq ma'lumot beradi. Got tili fonetik, grammatik tuzilishining tahlili german tillarining rivojlanish yo'llarini aniqlashda o'ta muhimdir. Got tiliga mansub faktlar german tillarini qiyosiy-tarixiy va tipologik tadqiqotlar o'tkazish uchun katta imkoniyatlar yaratadi.

Got yozuvining paydo bo'lishi 4 asrda gotlar orasida xristian dinining tarqalishi bilan bog'lik. Got yozuvi asosida grek alfaviti yotadi. Biroq, ayrim harflar lotin va runa yozuvidan o'zlashtirilgan. Got alfaviti 27 harfdan iborat.

Got injilidan (Bibliya) bir necha qo'lyozmalar saqlanib qolgan:

- «Kumush kodeks» (qonunlar majmuasi) (Codex Argenteus) 5-6 asrlarga mansub bo'lib, qo'lyozma Upsaldagi (Shvetsiya) universitet kutubxonasida saqlanmoqda. Unda kumush va tillo harflar bitilgan.
- «Ambrozian kodekslari» (Codices Ambrosiani) 7-8 asrlarga mansub. Milandagi Ambrozian kutubxonasida saqlanmoqda.
- «Korolin kodeksi» (Codex Carolinus) - 5 asrga mansub; Got va Lotin tillarida bitilgan ikki tilli qo'lyozma.
- «Gissen parchasi» - Misrda topilgan. U ham Got va lotin tilarida bitilgan.

Yanada mayda Got esdaliklari 8 varaqda Ioan Evangiliy parchalarida va Got kalendaridan keltirilgan.

5. Skandinav tillari

Skandinaviya haqidagi dastlabki ma'lumotlar eramizdan avvalgi 1- asrga mansub. O'sha paytda Daniyada va Skandinaviya yarimorolining katta qismida germanlar joylashgan edi. Skandinaviya yarimorolida yashagan bir qancha qabilalar vatanini tark etib, markaziy va shimoliy Evropaga yo'l oladilar. 5-6 asrlarda yutlar va angllar Britaniya orolariga ko'chib keladilar, shundan Yutlandiya va Angliya nomlari tarqalgan. Daniyaning hozirgi nomi "Danmark" daniyaliklar chegara yeri ma'nosini anglatadi. Danlar asosan Shvetsiyadan kelishgan.


Zelandiya orolida *silinglar* qabilasi yashagan. Zelandiya nomi *Selund* so'zidan olingan. Shuningdek, Norvegiya so'zi *Xordaland* so'zidan kelib chiqqan, chunki u yerda *xarudlar* yashagan. Hrzir bu Gollandiya deb ataladi.

Shvetsiyada eng katta qabilalardan *svionlar* va *sveelar* yashagan. Bu so'zning etimologik ma'nosi "svoy" -"o'zimizniki" yoki Sverige so'ziga taqaladi.

Skandinaviya nomi skāne- Skone so'zidan kelib chiqib, "xavfli orol" ma'nosini bildiradi. Skandinav qabilalari asosan chorvachilik, dehqonchilik bilan shug'ullanganlar. Keyinchalik dengizda so'zish, Rim imperiyasi va German qabilalari bilan savdo aloqalarini rivojlantiradi. Skandinayaviya mamlakatlar tarixining 8- asr oxiridan 11- asr boshlarigacha bo'lgan davri "Vikinglar davri" deb ataladi. Vikinglarning yurishlari 8- asr oxirida boshlanadi, ular Angliya, Shotlandiya, Irlandiya va Uelsning katta hududlarini bosib oldilar.

G'arbiy Evropada Normanlar (shimol odami) nomi bilan atalib, shimoliy Amerikani, Ispaniyani va Janubiy Italiyani bosib oldilar. Keyinchalik ular "varyaglar" nomi bilan Rus mamlakatini istilo qiladi. "Varyag" so'zi "qasamyod" ma'nosini anglatadi.

Boltiq va Qora dengizlarni tutashtiradigan "Varyagdan Grekkacha" degan nom bilan mashhur suv yo'llari orqali vikinglar Konstantinopolgacha yetib kelishadi. 11- asr o'rtalariga kelib vikinglar yurishlari barham topadi.



7- ma`ruza

Mavzu: G`arbiy german tillari

Reja:

1. Ingliz tili
2. Yozuvning paydo bo`lishi va uning lahjalari
3. Normanlar istilosidan keyin angliyada til vaziyati
4. Boshqa g`arbiy german tillari (friz, qadimgi sakson, Niderland, nemis, yahudiy (idish) va Afrikaan tillari)

Kalit so`zlar:

Ingveonlar, sakslar, angllar, frizlar, istveonlar, franklar, erminonlar, Shvabo-alemonlar, bavarlar, xalq, millat, Midland, Graf, Niderland tili, idish, torayish, delabilizatsiya, spirantizatsiya, vokalizatsiya, affrikatlashuv, turinglar, dialek (lahja), afrikaan, ost-ind, xatlar.

Adabiyotlar:

1. Рахимов Х.Р. Введение в германскую филологию. Тексты лекций. -Т.:ТДПУ 2000.-68с.
2. Арсеньева М.Г. и др. Введение в германскую филологию. - М: Высшая школа, 1980.-319 с.
3. Ярцева В Л. Развитие национального литературного английского языка.-М: Наука, 1969.- 199 с.
4. Богородицкий В А. Введение в изучение современных романских и германских языков. - М: Изд-во литературы на иностранных языках, 1953.— 183 с.
- 5 Гухман ММ. Готский язык. - М: Изд-во литературы на иностранных языках. 1958 - 190 с.
- 6 Жирмунский В.М. Введение в сравнительно-историческое изучение германских языков. - М, - 1б: Просвещение, 1964.-214 с.

1. Ingliz tili

G`arbiy german tillari uch guruh qabilalariga bo`linadi:

A) Ingveonlar -sakslar, angllar, frizlar;

B) Istveonlar - franklar;

B) Ermeonlar - Shvabo-alemonlar, bavarlar

Angllar, sakslar va yutlar eramizning 5-6-asrlarida Britaniya orollariga joylashib, Ingliz xalqi, keyinchalik Ingliz millatiga asos soldi. Frizlar mustaqil davlat tuzolmasa-da, o'z tillarini saqlab qolganlar va hozirda Gollandiyaning Frislandiya provinsiyasida, bundan tashqari Shimoliy dengiz sohillarida hamda G'arbiy germaniya chegarasidagi friz orollarida yashovchi aholi ushbu tilda so'zlashadi. Sakslarning Britaniya orollariga kelmaganlari nemis xalqi tarkibiga kirib, nemis millatini tashkil qildi. Istveon franklarining asosiy qismi, shuningdek, Ermeonlarning shvabo-alemonlari va bavarlari ham nemis xalqi va millatining asosiy qismini tashkil qildi. Shimoliy franklar Niderland millatini tashkil qilgan; Belgiyaning nemis-zabon aholisi Flamandlar ham ana shu Shimoliy Franklardan tarqalgan.

German tillarining G'arbiy german guruhi 5 kichik guruhga bo'linadi:

- 1) Qadimgi Ingliz tili (anglosakson tili);
- 2) Qadimgi-friz tili;
- 3) Qadimgi sakson tili;
- 4) Qadimgi quyi frank tili;
- 5) Qadimgi yuqori nemis tili;

Zamonaviy Ingliz tilining 3 xil varianti bor: Britaniya, Amerika va Avstraliya variantlari. Ingliz tili uzoq vaqt mobaynida Angliyaning hukmronligi ostida bo'lgan Osiyo va Afrikadagi mustamlakalari - Hindiston, Nepal, Shri-Lanka, Birma, Gonkong, Malayziya, JAR, Misr kabi mamlakatlarda keng tarqalgan. Ingliz tili ushbu davlatlar boshqaruvi, savdo, ta'lim sohalarida hamda davriy va ilmiy nashrlarda qo'llanilgan.

Milliy ozodlik harakatlarining rivojlanishi va milliy madaniyatning rivojlanishi bilan milliy tillarning siyosiy-ma'muriy va madaniy-marifiy sohalaridagi ahamiyati oshib bormoqda. Natijada Ingliz tili esa asta-sekin o'z o'rnini bo'shatib bermoqda.

Ingliz tili tarixi uch davrga bo'linadi:

- Qadimgi Ingliz tili davri 5-11- asrlar;
- O'rta Ingliz tili davri 12-15- asrlar;

- Yangi Ingliz tili davri o`z navbatida 2 ga bo`linadi:

Ilk yangi Ingliz tili davri 16-17- asrlar;

Eng yangi Ingliz tili davri 17- asrdan hozirgacha bo`lgan davr.

2. Yozuvning paydo bo`lishi va uning lahjalari

Qadimgi Ingliz tili davridagi yozma yodgorliklar asosida to`rtta lahjani aniqlash mumkin: Nortumbriya, Mersiy, Vesseks va Kent lahjalari. Shulardan Nortumbriya va Mersiy lahjalari angllarniki bo`lib, bir-biriga juda yaqin bo`lgan. ammo angllar qirolligi hududiy cheklanishi ular o`rtasidagi farqlovchi hususiyatlarning ham rivojlanishiga sharoit yaratadi.

Vesseks lahjasi Temzaning janubiy tarafidagi sakslar qirolligida, Kent lahjasi esa Angliyaning janubi-sharqidagi uncha katta bo`lmagan Kent qirolligida tarqalgan.

Qadimgi Ingliz tili davrida Runa yozma yodgorliklari juda kam uchraydi. Ulardan eng ko`zga qo`rinarlisi Ro`tvel Xochiha bitilgan diniy mazmundagi she`r bo`lsa, yana bir taniqli yodgorlik Kit mo`yidan (soqoli) yasalgan qu`tichadagi bitik hisoblanadi. Har ikkala bitikda Nortumbriya lahjasiga xos belgilar mavjud.

Xristianlikning tarqalishi bilan anglosakslar yozuvida Lotin alfaviti qo`llanila boshladi. Anglosakslarga bu yozuv irland missionerlari tomonidan kirib keldi. Irland xatida "g" harfi «3» orqali berilgan. Anglosakson olimlari alfavitga [ð] va [θ] tovushlarini ifodalash uchun «Þ» belgisini kiritganlar. Alfavitdagi "c" harfi esa [k] tovushini ifodalagan: cild - farzand, cumon - kelmoq.. Alfavitdagi "f" harfi esa jarangli [v] va jarangsiz [f] fonemalarini ifodalagan: *3iefan* - bermoq, *folc* - xalq.

Shu alfavit asosida monastir qoshida maktab tashkil qilinib, unda 600 monax o`qitilgan.

3. Normanlar istilosidan keyin Angliyada til vaziyati

Normanlar istilosi va hukumat tepasiga fransuz madaniyatiga mansub tabaqaning chiqishi natijasida davlat boshqaruvi va sud tizimida Ingliz tili qo'llanilishini ancha cheklanib qoldi. Monastir maktablarida darslar Ingliz tilida o'qitila boshladi. Ammo, ilm-fan va cherkovda oldingidek lotin tili hukmronligicha qoldi. Adabiyot fransuz tilida rivojlandi. Ingliz tilida faqat past tabaqa vakillari - dehqonlar, mayda yer egalari, hunarmandlar va savdogarlar o'rtasida qo'llaniladigan bo'ldi.

11- asrning oxiri va 13- asrning boshlarida Ingliz yozuvi chuqur tushkunlikka yo'z tutadi. Uzsseks lahjasi o'zining adabiy yozma standart sifatidagi mavqeini yo'qotadi. Deyarli ikki asr mobaynida Ingliz tili turli lahjalarga bo'lingan tarqoq holda rivojlanadi va natijada lahjalar o'rtasidagi farq yanada chuqurlashadi. Ushbu farq ayniqsa Angliyaning Midland Grafligi ikki tomonidagi shimoliy va janubiy lahjalari o'rtasida ko'zga ko'rinadi va natijada ushbu ikki hudud aholisi bir-birini yahshi tushunmaydigan darajaga etadi.

Bu borada Djon Trevoz va Uilyam Kekston shunday yozadi: bir graflikda so'zlashiladigan Ingliz tili boshqa bir graflikdagi Ingliz tilidan keskin farq qiladi.

4. Boshqa g'arbiy german tillari

G'arbiy german tillariga, shuningdek, friz, qadimgi sakson, niderland, Afrikaan, nemis va yahudiy tillari mansub.

1) Friz tili. Mazkur tilda 370 mingga yaqin aholi so'zlashadi. Asosan, Niderlandiyada tarqalgan; bundan tashqari Germaniyaning ikki rayonida ham so'zlashiladi. Keyingi 500 yil ichida friz tilining qo'llanilish hududi qisqarib borgan. Buning sababi shundaki, 16- asrlarda Frislandiya o'z mustaqilligini yo'qotadi va niderland tili davlat tili sifatida friz tilini siqib chiqaradi. Yaqin kunlarga friz tili faqat og'zaki so'zlashuv tili sifatidagina mavjud edi.

Friz tilining fonetik hususiyatlari quyidagicha:

- Unlilar qisqarishi: nem. *Sak*, nider. *Zak*, friz. *Sek*, **Ingl.** *Sack*- qop.

- Unlilarning delabizatsiyasi: nider. *doep*, nem. *dGyp*, friz, *grein*, Ingl. *green* - yashil.
- - n - ning ayrim undoshlar oldidan tushib qolishi: nem. *funt*, friz. *SH*, Ingl. *five*
- Spirantizatsiya - [g] -> friz, j, Ingl. Y [J]: nem. *gestern*, nider. *gisteren*, friz, *juster*, Ingl. *yesterday*.
- Vokalizatsiya - [g] harf birikmalarida ag, eg -> friz, ei [ai], sey [ei], nem. tag, nider. dag, friz dei, Ingl. day - kun.
- Affrikatizatsiya - [k] -> friz, Ingl. ch [tʃ]:
nem. kirche, nider. kerk, friz, tsjrke, Ingl. church - cherkov
- Ayrim holatlarda [r] ning tushib qolishi: Hem.wort, nider.woort, friz.wurd, Ingl.word - so`z

Qadimgi friz tili va qadimgi Ingliz tili o`rtasida katta o`xshashliklar mavjud.

2) Qadimgi island tili. Bu til g`arbiy german tillari guruhining qabilaviy dialekt tillaridan biri; ingveon qabilalaridan sakslar tili. Bu til davlat ham, millat ham bo`lmagan.

Qadimgi saks tilida Reyn va Elba hududlari o`rtasida yashaydigan aholi so`zlashgan.

8- asrda Franklar imperiyasi qulagach, bu til janubiy germaniyada madaniy va iqtisodiy rivojlanishda o`zining katta ta`sirini ko`rsatadi.

3) Niderland tili yoki golland tili ikki mamlakatda tarqalgan. Birinchidan, bu til Niderlandiyaliklar tili va unda 13.5 mln. kishi so`zlashadi.

Ikkinchidan, bu til Belgiyaning shimoliy hududida tarqalgan bo`lib, unda 6 mingdan ziyod kishi so`zlashadi. Fransuz tili bilan bir qatorda Niderland tili Belgiyaning davlat tillaridan biri. Bu til quyi nemis tili lahjasiga yaqin. Niderland tili hozirgi Niderlandlar yurti va shimoliy Belgiya hududida yashagan qabilalar - franklar, frizlar va saks qabilalari lahjalari asosida yaralgan. Bu tilning asosiy tarkibini qadimgi g`arbiy quyi frank lahjasi tashkil qiladi, friz va saks qabilalari lahjalarining ta`siri birmuncha kam.

Niderland tili tarixi uchga bo`linadi: Qadimgi niderland, o`rta niderland va yangi niderland.

4) Afrikaans tili. Bu til ilgari Bur tili deb atalgan. 1925 yildan boshlab, Janubiy Afrika Respublikasida Ingliz tili bilan bir qatorda davlat tili bo`lgan. Unda qariyb 3.5 mln. kishi so`zlashadi; shundan 2 mln. afrikalik va 1.5 mln. metis. Afrikaans German tillari ichida eng yoshi hisoblanadi – 17- asr ikkinchi yarmida shakllangan. Bu tilga 1962 yil Golland Ost-Ind kompaniyasi bazasida asos solingan. Afrikaans tilining leksikasi 99% niderland tilidan tashkil topadi. Niderland va Afrikaans tillari fonetik umumiy o`xshashliklari quyidagilar:

- Cho`ziq undoshlarning yo`qligi;
- Jarangsiz portlovchi p,t,k larda nafas tovushining ishtirok etmasligi;
- "g" sirg`aluvchi xarakteri;
- Ayrim o`rinlarda [ə] unlisning qo`llanilishi: nid., afr., kerk ['kərək] - cherkov

5) Nemis tili. G`arbiy german tillariga mansub bo`lib, so`zlashuvchi aholi soni bo`yicha Ingliz tilidan keyingi ikkinchi o`rinda turadi. Bu tilda 100 mln.ga yaqin aholi so`zlashadi. Nemis xalqi va nemis tili ilk o`rta asrlar - 5-11- asrlarda o`zaro qarindosh german qabilalari - franklar, xattlar, to`ringlar va ularning lahjalari asosida shakllandi. Nemis xalqi va nemis tili shakllanishi dastlabki bosqichida asosiy rol qadimgi istveonlardan franklarga tegishli bo`lgan. Uzoq vaqt mobaynida ushbu tillarning yozuvi bo`lmagan va faqat og`zaki muloqat tili hisoblangan. Franklar davlatining yozuv va davlat tili Lotin bo`lgan.

Nemis xalqining tili asosan franklar davlatining sharqiy hududida istiqomat qilgan g`arbiy german qabilalari tillari asosida shakllangan. Franklar, alemanlar, bavarlar, xattlar, to`ringlar qabilalari o`rtasidagi iqtisodiy va madaniy aloqalarning rivojlanishi natijasida bir-biriga yaqin lahjalarda so`zlashuvchi bu qabilalarning birlashuvi va aralashuvi kuzatildi hamda shu tariqa nemis xalqi vujudga keldi. Nemis xalqi shakllanishidagi eng muhim voqea 9- asrda franklar davlatining uch qismga bo`linib ketishi va undan mustaqil nemis davlatining ajralib chiqishi bo`ldi.

6) Yahudiy tili — Idish. Asosan AQSh, MDH, shuningdek, Polsha va Ruminiyada istiqomat qiluvchi 11.5 mln. yahudiydan tahminan 6-7 millioni Idish tilida so`zlashadi va bu til ular uchun adabiy til hisoblanadi. Bu til Germaniya

hududida ayrim o`rta nemis va shimoliy nemis lahjalari qorishmasi asosida shakllandi.

Yahudiylarning tarqlishi - 14-16- asrlarda yahudiylar germaniyaning turli viloyatlaridan sharqiy Evropa slavyan mamlakatlaridan Polshaga, keyin Rossiya, Ukraina va Belorussiyaga ommaviy ko`chishadi.

Idish tilida adabiyot dastlab diniy adabiyot ko`rinishida paydo bo`ldi. 16-asrdan boshlab ertaklar, afsonalar va romanlar yaratildi.

Idish tili adabiyotining markazi ikkinchi jahon urushidan so`ng shimoliy va janubiy Amerika hamda Isroil hisoblanadi. Ammo, Isroilda davlat tili Idish emas, balki, Ivrit bo`lib, uning asosida qadimgi (klassik) yahudiy tili yotadi.